

M.A.Jo‘rayeva, FarDU filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmonova Gulnozaxon Qurvonali qizi, FarDU magistranti



FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASIDA YOSHLAR XARAKTERINING IFODALANISHI

<https://zenodo.org/uploads/19841093>

Annotatsiya: maqolada Abdurauf Fitratning “Chin sevish” dramasi­dagi yoshlar xarateri, yoshlar obrazi, davr muammolari tahlilga tortiladi. Zulayho obrazi orqali muallif o‘sha davrdagi xotin-qizlar hayotini o‘zgartirish masalasini ifodalagani talqin etiladi. Nuriddin va Zulayho xarakteri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xarakter, tip, obraz, detal, syujet, mavzu, g‘oya

ИЗОБРАЖЕНИЕ ХАРАКТЕРА МОЛОДЕЖИ В ДРАМЕ ФИТРАТА «ЧИН СЕВИШ» (ИСТИННАЯ ЛЮБОВЬ)

Аннотация: В статье анализируются характер юноши, образ юноши и проблемы эпохи в драме Абдурауфа Фитрата «Истинная любовь». Интерпретируется, что через образ Зулайхо автор выражает проблему изменения жизни женщин того времени. Особое внимание уделяется персонажам Нуриддина и Зулайхо.

Ключевые слова: персонаж, тип, образ, деталь, сюжет, тема, идея

REPRESENTATION OF YOUTH CHARACTERS IN FITRAT’S DRAMA "CHIN SEVISH" (TRUE LOVE)

Abstract: This article analyzes the character of a young man, the image of a young man, and the problems of the era in Abdurauf Fitrat's drama "True Love." It is interpreted that through the character of Zulaikho, the author expresses the problem of the changing lives of women of that time. Particular attention is given to the characters of Nuriddin and Zulaikho.

Keywords: character, type, image, detail, plot, theme, idea

Kirish. “O‘zbek sahnalarida shu kungacha o‘ynalib kelgan pyesalarning eng kuchlisi, eng buyugi o‘tkir yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan olib yozgan “Chin sevish” pyesasi ekanligini hamma iqror etsa kerak. Sahnamizda bir necha martaba borliq ko‘rsatgan bu besh pardali pyesa 17 sentabrda yozliq “Turon” sahnasida o‘zbek davlat truppasi tomonidan yana o‘ynaldi. Hammaga belgili o‘zgarishdan so‘ng har ishimizda bo‘lg‘oni kabi, teatru ishida ham to‘lqunlanishlar bo‘lub o‘tdi. Bir necha truppalar tuzildi. Kunda bu yangi pyesa sahnalarimizni ziyorat qilib ham turdi. Bir o‘quv-yozuv bilgan kishimiz pyesa yozishga tutundi, desak ham bo‘ladi. Truppalar pyesaning qandaq ekanligini tekshirmak, o‘ynashdan uyanmag‘onlari kabi, el ham tomoshag‘a kelishdan uyanmadi. Chunki yangi edi;

o'ynag'uvchi ham tomoshachida ruh bor edi. Bunda bo'laturg'on kamchiliklarning kelgusida tuzalishiga ishonchlari kuchli edi. Shu davrda pyesa atashqa arziyurg'on asarlar ham ora-sira sahnimizda ko'runib turdi. Boshlang'on ishning kundan-kun tuzalib, yaxshilanib borishi qonun kabi bo'lsa-da, bizning hamma ishlarimiz kundan-kun buzulib, komon yo'lg'a kirib boradir. Shu kabi teatru ishlarimizning ham ancha ortg'a chekilganligini bu kun o'ynalg'on "Chin sevish"dagi hollar ochiq ko'rsatadir. O'ynag'uvchida ham, tomoshachida ham dard so'na boshlag'onligi ko'runub turadir".

Abdurauf Fitrat o'zbek xalqi hayotida XX asr tongida boshlangan Yangi Milliy Uyg'onish davri va uyg'onish adabiyotining buyuk vakilidir. Turkistonda til va adabiyot, san'at masalalari bilan shug'ullangan. "Chig'atoy gurungi" jamiyatiga rahbarlik qildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Fitrat o'zbek adabiyotini istiqloq ruhidagi ajoyib she'rlar, publitsistik maqolalar, nasriy asarlar, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan boyitdi. U o'zining "Chin sevish", "Hind ixtilochilari", "Arslon", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni" singari dramatik asarlari bilan mashhur bo'ldi.

O'tgan asrning 20-yillari boshida yozgan "Chin sevish" dramasi Hindiston hayotidagi voqealarni asos qilib oladi. Chunki, Turkiston hayoti misolida bosqinchilarga qarshi kurash g'oyasini ilgari surishning iloji yo'q edi. Asar ko'proq ma'naviy-ishqiy yo'nalish asosiga qurildi. Fitratning "Chin sevish" dramasi yoshlar obrazi keng tasvirlangan. Ushbu asar Hind ixtilochilari turmushidan olingan 5 pardali ishqiyy-hissiy fojidadir.

Qahramonlari: Nuriddinxon - faylasuf tabiatli, 35 yosharli o'qimishli bir yigit (Hindning o'rta holli bir kishilaridan), Ahmadxon - 25 yashar, o'qimishli yigit (Nuriddinning inisi), Sarvarxon - o'qimishli bir yigit (Nuriddinning o'rtog'i), Zulayho - 16 yoshli o'qimishli qiz, Fotimaxonim - Zulayhoning onasi, Karimbaxshxon - Zulayhoning otasi, Zaynab - xizmatchi xotin, Rahmatullohxon - o'qimishli bir boyvachcha (25 yoshda), Vilkan - ingliz yuzboshisi, Zindonchi, cheriklar (lashkar) yuzboshilari, Ayyubxon, Sherxon, G'ulomxaydar - Rahmatullohning o'rtoqlari, Shukrulloh - Rahmatullohning xizmatkori.

Natija va muhokama

Asardagi voqealar Hindistonning Dehli shahrida bo'lib o'tadi. Zulayhoning o'y-xayollari, ya'ni Nuriddinning Zulayhonikiga kelishi va odob-axloqi haqida o'ylaydi. U bir kelganda bir kitobni Zulayhoga beradi, ichida o'tli bir she'r yozilgan. She'rda Nuriddin o'zining ichki kechinmalarini bayon qilgan.

Zulayho o'qimishli bir qiz, ota-onasini hurmat qiladigan, davrning yangiliklariga befarq qaray olmaydigan qiz. Uni ham yurt ozodligi, vatan mustaqilligi qiziqtiradi va shu haqida o'ylaydi. Unda qizlarga xos ibo-hayo, iffat yuqori darajada tasvirlanadi. Zulayho Nuriddinning sevgilisi. Muallif Zulayho obrazini o'zgacha bir mehr bilan tasvirlaydiki, o'zbek ayollariga xos bo'lgan barcha ijobiy fazilatlarni yuklaydi. Nuriddin nohaqdan qamalgan paytda ham unga hiyonat qilmaydi. U boylikka uchadiganlar toifasidan emas. Boylikni deb Nuriddindan umid uzib Rahmatullohga ko'ngil qo'ymadi, balki uni kutadi; sabr-toqatli qiz. O'zining fazilatlari bilan yoshlarga o'rnak bo'la oladi.

Adib Zulayho obrazini xarakterga keyin esa tip darajasiga olib chiqadi. Chunki o'sha davr uchun qizlarning o'qishi, ziyoli sifatida nom qozonishi, sevgisi uchun kurashi, o'z fikriga egaligi, maqsadi yo'lida tinimsiz o'qish kerakligini Zulayho orqali tasvirlaydi. Zulayhoni fikrlashi, qarashlarip o'zi kabi qizlarni, yoshlarni to'g'ri yo'lga ergashtira olishiga ishonganligi uchun ham uni tip darajasiga ko'targan.

Nuriddin o'y-xayollarga berilgan, doimo g'amgin bir suratda, chunki u ishq dardiga chalingan. Bu ishq Nuriddin uchun aziz va muqaddasdir. Uning ishq bu dard emasligini, u oshiq uchun bir tilak borligini tushunishi fikrimizning isbotidir. "Ishq dard emas: insonlarni hayvonlikdan qutqarar bir davodir. Buyuk qahramonlar, ulug' adiblar, katta faylasuflar yolg'iz ishq ko'chasida ketishmishlar. Buyuklikda "Kamol" degan narsalarga erishmak ishqsiz mumkin emas. Shuning uchun ishq bir davodir. Buni «dard» deb, davosini izlaganlar, yanglish yo'lga ketadilar" deb sevgini qadrlaydi va muhabbatni aziz tutadilar.

Nuriddin keng mushohadali, ma'naviyati yuqori bo'lgan davrining peshqadamlaridir. Uning ma'naviyatli ekanligini Yevropa bilan Sharqni bir-biriga solishtirib, qiyoslaganda ham ko'ramiz. "Ovropa" da hayvonlikdan boshqa narsa yo'qdir, Ovropaliklarda ruh yo'qdir. Bular ruhoniy lazzatdan bir narsa anglamaktirlar. Chin sevis va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdir. Majnunlar, Farhodlar kabi ishq payg'ambarlari Sharqda ketishdilar. Bu kun Ovrupangdan ishq otini olgan hollar hayvonliq havaslaridan boshqa bir narsa emasdir. Ovrupadagi «ishq» deb tanilgan u hayvonlar havasi, kishining kamoliga, sabab bo'lmas kimsaning ruhini yuksaltirmas. Ovropa bo'yla emish, deb men ham o'zimni hayvonliq chuqurlariga ota olmam» deb Sharq bilan G'arbni muqoyasa qiladi.

Nuriddin uchun sevgi shunday qadrli va buyuk ne'matki, u ma'shuqani o'y-xayollarida o'tkazgan kunini qadrli deb biladi. "Chin oshiq o'zining saodatini emas, ma'shuqaning kamolini istar, Mashuqaning kamoliga xizmat etmak uchun o'zi komil bo'lurga tirishur" degan fikrlar ham Nuriddinga tegishli.

Nuriddin ishqni qanday qadrlasa, Vatanini o'zi tug'ilgan tuproqni shunday qadrlaydi. U inglizlar bosib olgan yurt Hindistonni ozodlikka chiqishini istaydi. "Mening torgina miyamda yer yuzining qayg'usini sig'dirgan ekan, o'zimni yer yuzida sig'dira olmaydigan ishmi bu?! Yurtimning to'rt yuz million ulusi necha ming ingliz maymunlarining tayog'lari ostinda ezilib turadilar. Yuz minglarcha qon-qarindoshlarim ochlikdan o'lib turalar. Qorong'u zindonlardagi kishanlar ostinda jon berganlarning soni yo'q. Bunlarning qutulish yo'llarini axtarasiz deb yozuqsiz kishilarni, tinch kimsalarni ham qamab turalar yana o'zlarini inson, madaniy" odil atab yurarlar uyatsizlar, vijdonsizlar, yovuzlar! Bugun maymun sirasinda qo'ydingiz Hindiston bolalari qiyomatga dovur bo'yla qolmasunlar» deb Nuriddin o'z yurtli unda yashaydigan xalqqa achinadi. Hatto u tuhmatdan qamalganda ham Hindistonni o'ylab iztirob chekdi. Zulayhoni bir lahza bo'lsa-da esdan chiqara olmabdi. Uning o'y-xayollari og'ushida yashadi. O'sha paytda o'z haqqini talab qilganlarni qorong'u zindon kutardi. Bundan esa sog'-omon qutulish esa mavhumdir. Shunday turma azobini-da Nuriddin bosib o'tdi va to'g'ri Zulayhoning uyiga bordi, u yerda ikki Yosh uchrashdilar, lekin shunday baxtli lahzalarda yana yovuz kuchlar paydo bo'ldi. Bulardan biri Rahmatulloh edi.

Chinakam vatanparvar Fitrat o'z orzularini Nuriddin timsolida aks ettirgandek. O'z Vatani uchun u kabi farzandlar suv va havodek zaruruligini sezgan holda, uni yaratgandek.

Asarda tasavvufning ishq haqidagi qarashlari bilan yo'g'rilgani sezilib turadi. Ming yillardan beri Sharqda ishq - Haqqa eltuvchi yo'l, haqiqiy ishq aslida visoldir degan tushuncha mavjud. Nuriddin ham sof qalbli yigit. Haqiqiy farzand. U o'z yurtli, sevgilisi uchun jonini ham berishga tayyor. U faqatgina o'zini o'ylaydigan, qorni to'q, usti but, tinch yursam bo'ldi, deydigan vijdotsizlardan emas. U Vatanim ozod bo'lishini, tuprog'idan dushman izlari yo'qolishini, yurtdoshlari zulm va nohaqliklardan ezilmasligini istaydi. Bunga harakat ham qiladi.

Rahmatulloh 25 yoshdagi bir boyvachcha otasi ham mol-davlatli o'zi ham shundaylardan. U ham Zulayhoning oshig'i. Zulayhoni qanday bo'lsa-da ilintirish payida. U bu yo'lda do'stlari: Sherxon, G'ulomxaydar, Ayyubxon bilan kengash qiladi. Nuriddinga turli ayblar to'qib yo'q qilish niyatiga tushadi. Natijada, u Nuriddinni turmaga tashlatdi. Zulayhoni o'z bag'riga olmoqchi bo'ladi, lekin foydasiz. Zulayhoning otasi Karimbaxshxon qizini Nuriddinga bermoqchi, Rahmatullohga berish niyati yo'q, chunki u qizining ko'ngliga qaraydi. Bu esa Rahmatullohga yoqmaydi. Qizning otasini ham yo'q qiladi, lekin bundan ne foyda?

Rahmatulloh ishq alami yo'lida hatto o'z yurtdoshlaridan ham kechadi, ularning hayotiga zomin bo'ladi. Mustamlakachi davlat rahbariyati bilan aloqa qilib, ularning hukmi bilan o'zining jigargo'shalarini yo'q qilmoqchi bo'ladi. Bu esa qanday qabohat? Rahmatulloh kabi yurt sotqinlari, o'z manfaatini o'ylovchilar yurtni shu holatga keltirdilar. Endi esa mustamlakachilarga va ularning o'ng qo'llari bo'lgan Rahmatulloh kabilarga kurashmoq zarur.

Fitrat Hindiston misolida o'z yurtlini tasvirlar ekan, yurtidagi Vatan xoinlari, mustamlakachi zolimlarning iskovichlari obrazlarini asariga kirgizmasligi mumkin emasdi. Rahmatulloh ana shunday Vatanini sotgan iymonsizlarning timsolidir. Rahmatulloh boy oilada katta bo'lgan. Uning bor istak-xohishlari doimo bajo keltirilgan. Uning qalbi iymon, vijdon, or-nomus, muhabbat kabi insoniy tuyg'ulardan mosuvo. U o'z qorni, nafsi, manfaati yo'lida hech narsadan toymaydi. Hatto vatani, vatandoshlarini ham sotishgacha borgan mahluqdir. Yozuvchi bunday mal'unlar qiyofasida ko'z o'ngida shu ishlarni qilayotganlarning asl qiyofasini ko'rsatishga urinadi. U orqali o'quvchida bunday pastkash kimsalarga nisbatan nafrat hissini uyg'otishni maqsad qiladi. Va bunga erishadi ham.

Xulosa

Fitrat o'zining "Chin sevish" dramasi ga Yoshlarni obraz qilib oldi. XX asrning 20-yillarida Turkiston mustamlakachilik siyosati davrida o'z asarini yozdi. Bu paytda o'z asarini Turkiston misolida ko'rsata olmas edi. U Hindiston voqealari asosida Turkistonning ijtimoiy hayotini ko'rsatib berdi. Davlatni ozod qilish uchun keng ommani yig'ib, birga bosh ko'tarib, yurtni bosqinchilardan saqlash kerak edi. Bu borada xalqning eng yetuk, navqiron kuchi yoshlar edi. Yoshlarni har tomonlama bo'lishi yurtning ozod bo'lishidagi birinchi omil edi. Asar qahramonlari ham o'qimishli, ilmi, ertangi kunni ko'ra oladigan yigitlar va oqila qizlar timsolida barcha yoshlarni vatan erki, ozodligi uchun kurashishga chorlaydi.

Nuriddin va Zulayho bugungi yoshlarga ham o'rnak bo'ladigan obrazlar. Ular misolida haqiqiy chin oshiq-ma'shuqalarni ko'rgandek bo'lamiz. Ular shunchaki hoyu-havaslar emas, balki haqiqiy ishq sharobidan mast bo'lganlar. Ular bir - birlari uchun jonini berishga

tayyorlar. Bu ikki Yosh bir-biridan aqlli va hurfikr. Bir-biriga har tomonlama mos. Vatan ozodligi, yurt erkinligi, muhabbat ular uchun oliy qadriyat. Bunday Yoshlar esa Turkiston uchun suv va havodek zarur. Bu asar bugungi kunda ham barcha uchun oʻrnak boʻla oladi. Zulayhodek goʻzal, hurfikrli, ham dunyoviy, ham diniy bilimda barkamol, hayoli, iboli, yoriga bir umr sadoqatli qizlar kerak. Chunki bunday qizlardan asl farzandlar dunyoga keladi. Ular haqiqiy er yigitlarni tarbiya qiladilar.

Nuriddin ham hozirgi Yoshlar uchun har tomonlama oʻrnak boʻla oladi. U kabi vatanparvar, vijdonli, haqiqatparvar, chinakam ishq kishisi boʻlgan yigitlar doimo yurtimiz uchun kerak. U Farhod-Majnunlardek haqiqiy ishq sohibi. Bunday ishq barcha insonlarning qalbiga in qurishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: - Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
2. Boltaboev X. Fitrat va jadidchilik. T.: - Alisher Navoiy nomiдаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 286 б.
3. Faniev I. Fitrat dramalari poetikasi. T.: - «ФАН» нашриёти, 2005. – 282 б.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. T.: - Шарк, 2004. – 640 б.

Oripova Gulnoza Murodilovna, Fargʻona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc) ORCID: 0000-0003-3403-5706 g.oripova@pf.fdu.uz



UOʻK: 82-1/-19: 82-14

AYOL IJODKORLAR LIRIKASIDA ANʻANAVIY OBRAZLAR TRANSFORMATSIYASI

<https://zenodo.org/records/19841336>

Annotatsiya. Maqolada oʻzbek ayol shoiralari ijodida anʻanaviy obrazlarning badiiy transformatsiyasi va ularning oʻziga xos talqinlari tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida daraxt obrazining Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva va Enaxon Siddiqova sheʼriyatidagi poyetik funksiyalari tahlil qilingan. Muallif anʻanaviy mifologik asoslarga ega boʻlgan daraxt timsolining zamonaviy lirikada lirik qahramon ruhiyati, sadoqat, vatanparvarlik va ayol qismati bilan bogʻliq holda yangilanish jarayonlarini yoritib bergan. Maqolada struktural-poetik, germenevtik va qiyosiy-tahlil metodlaridan foydalanilgan boʻlib, badiiy obrazning inson psixologiyasi bilan bogʻliqligi parallelizm tamoyili asosida koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: oʻzbek lirikasi, anʻanaviy obraz, daraxt obrazi, tasvir va talqin, parallelizm, poetik mazmun, lirik kechinma.